

BOLALARDA NUTQIY RIVOJLANISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TA`SIRI

Izbulloyeva Saodat Azamatovna

*BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi magistranti
izbulloyevazamat@gmail.com*

Annotatsiyasi: *Tayanch so'zlar: nutq psixofiziologiyasi, o'zaro ta'sir mexanizmlari, afaziyalar va nutq shakllanishida oilaviy muhit, bolaning ijtimoiylashuvi, fobiyalar va psixologik omillar, nutq fiziologiyasi, kommunikatsiya, funktsiya, predmet, ijtimoiy tajriba, verbal, nonverbal, paralingvistik, nutq mexanizmlari, signallar signali, til grammatikasi, idrok, muloqot ko'lam, kognitiv faollik, nutqsiz tafakkur, egotsentrik nutq, aql-idrok, so'zlash qobiliyati, psixolingvistika, nutq apparati, mimika, pantomimika, exologik, ya'ni aks sado, signifikatsiya, (shartli belgilar, signallar, modellar) daktilologik (barmoq nutqi), ikkinchi signal sistemasi*

Аннотация: *База слова: речь психофизиология, взаимность эффект механизмы, афазии и речь информация семья окружение ребенка социализация, фобии и психологический факторы, речь физиология, общение, функция, субъект, социальный опыт, вербальный, невербальный, паралингвистический, речь механизмы, сигналы сигнал, язык грамматика, восприятие, общение масштаб, познавательный деятельность без речи мышление, эгоцентризм речь, интеллект, говорение способности, психолингвистика, речь аппарат, мим, пантомима, экологический, отражение звук, значение, (условный знаки, сигналы, модели (дактилологические) (пальцевые речь), вторая сигнальная система*

Annotation: *Base words: speech psychophysiology, mutual effect mechanisms, aphasias and speech in formation family the environment of the child socialization, phobias and psychological factors, speech physiology, communication, function, subject, social experience, verbal, non-verbal, paralinguistic, speech mechanisms, signals signal, language grammar, perception, communication scope, cognitive activity without speech thinking, egocentric speech, intelligence, speaking ability, psycholinguistics, speech apparatus, mime, pantomimic, ecological, reflection sound, signification, (conditional signs, signals, models (dactylological) (finger speech), the second signal system*

Tabiat mo'jizalaridan biri bola tomonidan nutqni o'zlashtirish qobiliyatidir. Tilsiz tevarak olamning mohiyati tushunarsiz va biz til orqali ifodalaydigan olam madaniylashmagan bo'lar edi. Til bizning nimalar haqida xayol qilishimiz, idrok etishimiz va eslab qolishimizga ta'sir ko'rsatadi. Shubhasiz, ta'lim bizning so'zlash va fikrlash kuchimizni, qobiliyatimizni oshirish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda har tomonlama ma'nan yetuk, jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish har bir inson oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, har bir mamalakatning porloq kelajagini insonlardagi ijodiy, intellektual ma'naviy taraqqiyot yo'lga xizmat qiluvchi

davlat mexanizmisiz tasavvur qilish mushkuldir. Shu boisdan ham hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanib borayotgan davlatlar birinchi galda o'z fuqorolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga hamda undan ijodiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, shaxsni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda bolalarda nutq shakllanishi va rivojlanishi ta'lim va tibbiyot sohalari uchun juda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki har bir bolaning ham aqlan va jismonan sog'lom bo'lishi, sog'lom rivojlanishi soha mutaxassislari oldiga qator talablarni qo'yadi. Ushbu talablar asosida bolalarning nutqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar atroficha o'rganilmoqda. Nutqning rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri va nutqning psixofiziologik ta'siri o'rganiladi. Nutq shakllanishi va rivojlanishi bevosita tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda rivojlanib taraqqiy etib boradi.

Tadqiqotning nazariy tamoyillari umumiy masalalarga bag'ishlangan olimlarning fundamental asarlariga asoslanadi: faoliyatning psixofiziologik nazariyasi, nutqni shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish (I.P.Pavlov, P.Broka, K.Vernike, P.K.Anoxin, N.I.Jinkin, A.R.Luriya, D.Mayers, P.I.Ivanov, P.Yu.Galperin, , A.N. Leontev, J.S. Rubinshteyn); nutq nazariyalari (A.V. Petrovskiy, L.B. Sokolova, L.U.Benjamin J.Gopnik, M.Meltzoff, G.P. Shchedrovitskiy); c I.P.Pavlov, P.Yu. Galperin). Nutqning rivojlanishi va ularga ta'sir etuvchi omillar nazariyasini yaratishda o'zbek olimlaridan: E.G'.G'oziyev, Sh.R.Barotov, V.Karimova, D.N.Arzikulov, A.A.Beknazarov, B.N.Sirliyev, L.Olimov, Z.Maxmudova, A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov, A. Xusenova, A.M.Nazarovlar ilmiy izlanishlar olib borishgan va katta hissa qo'shganlar.

³⁹Jan Piaje bolalarning rivojlanishiga fizik olam ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblagan bo'lsa, yosh davrlarni o'rgangan rus psixologi Lev Vigotskiy (1895-1934) bolaning aql idroki rivojlanishiga ijtimoiy muhitning o'rni kattaligiga urg'u bergan. Piaje bolalarni yosh olimlar deb aytgan, Vigotskiy esa ularni yosh shogirdlar degan. Bunga ko'ra otalalar yoki tarbiyachilar tomonidan bolalarga biror narsa o'rgatilsa yoki yangi so'zlar berilsa, ularni bolalar o'zlashtirib idrokning yuqori bosqichlariga o'tishlari mumkin. Nutq va ijtimoiy muhitning muhim qismlari o'rgatilishi, aql-idrokka poydevor yaratib beradi.

J. Piaje tadqiqotlari bolaning tafakkuri va nutqi hamda uning mantiqi va dunyoqarashi haqidagi ta'limotini rivojlanishida butun davrni tashkil qilgan.

⁴⁰T. Simon laboratoriyasida ishlayotib yosh J. Piaje bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagilar nutqiga ko'proq ahamiyat qaratgan, uni ayniqsa test savollariga javob berishidagi takrorlanuvchi xatolar qiziqtirgan bolalar bog'chasi sharoitida tadqiqot o'tkazilib, unda kuzatuvchilar erkin faoliyat rasm chizish yoki o'yin davomida bolalarning barcha aytgan fikrlari va bajaradigan harakatlarini tizimli ravishda qayd

³⁹ Rivojlanish psixologiyasi va eksperimental psixologiya o'quv qo'llanma

⁴⁰ 4David G. Myers "Psychology ninth edition in modules". NY, WORTH PUBLISHER-2010. 185 pages.

qilib borganlar. J. Piaje fikriga ko'ra, bolalar fikrlarini ikki guruhga bo'lish mumkinligini ko'rsatadi.

1. Ijtimoiylashgan nutq darajalari kategoriyalari axborot, tanqid, buyruq, iltimos, taqlid, savol, javob.

2. Egotsentrik nutq shakli bo'yicha bu fikrlar har xil bo'lishi mumkin takrorlash (exolaliya) monolog jamoaviy biroq umumiylik suhbatdoshining nuqtayi nazari qandayligi uni tinglayotganligi bilan qiziqmay ayni damda nimani o'ylayotgan bo'lsa shu haqida o'z fikrini bildiradi. Egotsentrik nutq vazifasi ta'sirliroqdir "Suhbatlashishdan qoniqish" harakatlarni kuzatilishi va ritmliligi J. Piaje bolaning erkin nutqida egotsentrik nutq hissasini o'lchab ko'rib, ilk yoshda egotsentrik nutq koeffitsienti yuqoriligini-75%, 6-7 yoshga kelib asta-sekin pasayishini aniqlagan. Ta'kidlarning oddiy to'qnashuvini emas, balki tomonlarning o'zaro tushinishi va tushuntirishga manfaatdorligi bilan kuzatiladigan nuqtayi nazarlar almashinuvini o'zida namoyon qiluvchi bahs-munozara faqatgina 7-8 yoshga kelib yuzaga keladi.

Nutq faoliyati-odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq faoliyati aloqa jarayonining o'zidir. Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh guruhlarda turlicha vositalar tanlanadi

Bolalarda nutqning shakllanishi dastlab egosentsik nutq negizida paydo bo'la boshlaydi. Bu ular o'zi tushunadigan tilda o'ziga o'zi gapirib, kattalar nutqini kuzatish jarayonida ularda dastlabki muloqotga kirishish jarayoni paydo bo'la boshlaydi. Bu ichki nutqning tashqi nutqqa o'tishi bilan tavsiflanadi. Bola so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga e'tibor qilishiga, erkalatilishiga, o'yinchoq kabilarga erishishga intiladi. So'z aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini to'g'ri ishlatishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumladan murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun nutqni rivojlantiruvchi trening dasturi o'yinlar, qiziqarli mashqlar va amaliyotlar orqali bajarilishi kerak. Bu yoshdagi bolalar uchun treningning asosiy maqsadi - nutqni rivojlantirish, talaffuzni yaxshilash va o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rgatish. Quyidagi dastur kichik maktab o'quvchilari uchun moslashtirilgan.

1. Kirish va tanishuv (5-10 daqiqa)

Maqsad: O'quvchilarni bir - biriga tanishtirish va treningning ahamiyatini tushuntirish.

Tanishtirish o'yini: Har bir o'quvchi o'z ismini aytib, o'zlari haqidagi sevimli narsasini (rang, hayvon, taom) aytadilar. Bu bolalar o'rtasida ishonchni oshiradi.


Maqsadni tushuntirish: Nutqni rivojlantirish nima uchun muhim? O'quvchilarga nutqni yaxshilash orqali qanday imkoniyatlarga ega bo'lishlarini tushuntirish.

Nutq rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur tahlil qilish orqali tarbiyachilar, pedagoglar va ota-onalar bolalarning lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

3.1 jadval

«Nutq holatini va nutqdan tashqari funksiyalarni kompleks tekshirish» (A.P.Voronova) metodikasi orqali olingan natijalar tahlili (n=50)

Shkalalar	O'rtacha qiymat		U	Z	Ahamiyatlilik darajasi
	1-sinf N=20	4-sinf N=30			p
Nutqni rivojlantirish darajasi	2,12	2,86	1004	-1,32	0,05
Nutqni tushunish	2,98	3,91	1052	-2,6	0,02*
Tovush talaffuzi	2,77	4,02	708,5	-3,74	0,009*
So'zlarning bo'g'in tuzilishi	2,8	3,71	754	-2,9	0,01*
Fonemik tasavvurlar	2,74	2,92	947,5	-1,1	0,05
So'z zahirasi	2,91	3,1	940,5	-2,1	0,04
Grammatik qurilish	2,87	3,14	897	-1,9	0,05
Nutqning izchilligi	2,91	3,07	820,5	-1,78	0,05



1-sinf va 4-sinf o'quvchilarida so'zlarning bo'g'in tuzilishi, tovush talaffuzi, nutqni tushunish va so'z zahirasi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan metodik tahlillar, 4-

sinf o'quvchilari sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishganini ko'rsatdi. Ushbu holatlarning psixologik jihatdan tahlil qilinishi bolaning rivojlanish bosqichlari, nutq ko'nikmalarining shakllanish dinamikasi va o'quv muhitining ta'siri bilan bog'liqdir.

Metodikaning "so'z bo'g'inlarining tuzilishi" shkalasi ($U=754$; $p<0,01$). Bunda so'zlarning bo'g'in tuzilishini o'zlashtirish bo'yicha 4-sinf o'quvchilari yuqori natijalarga erishgani ularning kognitiv rivojlanishi, ya'ni analiz va sintez qilish qobiliyatining kuchayishi bilan izohlanadi. 1-sinf o'quvchilarida bu ko'nikma endigina shakllanayotgan bo'lsa, 4-sinfda u allaqachon mustahkamlangan bo'ladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning o'qish va yozish amaliyoti, og'zaki va yozma nutq bilan ishlashlari muhim rol o'ynaydi.

Metodikaning "tovush talaffuzi" shkalasi ($U=708,5$; $p<0,009$). Bunda tovush talaffuzidagi yaxshilanish 4-sinf o'quvchilarida artikulyatsion apparat rivojlanishi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda o'zlariga bo'lgan ishonchning oshishi bilan bog'liq. Bu yoshda bolalar o'z nutqidagi xatolarni anglay olish qobiliyatiga ega bo'lib, o'z-o'zini tuzatish mexanizmlari shakllanadi. Shuningdek, talaffuzning mukammallashuvi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muntazam muloqot natijasida ham yuzaga keladi.

Metodikamizning "nutqni tushunish" shkalasida ($U=754$; $p<0,01$) natija qayd etildi. Nutqni tushunish ko'nikmasining rivojlanishi 4-sinf o'quvchilarining yuqoriroq tafakkur darajasiga yetganligi va ular nutq kontekstini yaxlit tushunishga qodir bo'lganligi bilan bog'liq. Bu ko'nikma o'quvchilarni har xil matnlar, savol-javob mashqlari va muloqot tajribasi orqali rivojlantiriladi. 1-sinfda bu jarayon hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, bolalar asosan oddiy va qisqa jummalarni tushunish bilan cheklanishadi.

Metodikamizning "nutqni tushunish" shkalasida ($U=754$; $p<0,01$) natija qayd etildi. So'z zahirasiining sezilarli darajada oshgani 4-sinf o'quvchilari uchun tabiiy jarayondir, chunki bu davrda lug'at boyligini oshirishga qaratilgan metodik ishlar yanada chuqurlashadi. O'quvchilar bu yoshda so'zlarning semantik ma'nosini, kontekstda qo'llanilishini va ulardan turli muloqotlarda foydalanishni o'rganadilar. Lug'atning kengayishi nafaqat dars jarayonlari, balki bolalarning o'zaro muloqoti va oiladagi suhbatlari orqali ham rag'batlantiriladi.

Psixologik nuqtai nazardan, bu ijobiy o'zgarishlar bolaning rivojlanishidagi yoshga oid xususiyatlar, kognitiv funksiyalarning kuchayishi, shaxsning rivojlanishi va ta'lim jarayonining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. 4-sinf o'quvchilarida shakllangan yuqori ko'nikmalar ularning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishi va keyingi bosqichdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bois, har bir ko'nikma bosqichma-bosqich rivojlanib, bolaning umumiy psixologik va nutqiy rivojlanishini ta'minlaydi.

XULOSA

Bolalarning nutqiy rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga ijtimoiy-psixologik omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Nutqni rivojlantirishda oila, muhit,

shaxsiy tajriba va psixologik xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, oiladagi muloqot va tarbiya usullari bolaning nutq madaniyatini shakllantiradi. Ota-onalarning mehribonlik va diqqat bilan yondashuvi, ular bilan o'zaro sog'lom muloqotning mavjudligi bola nutqining boyishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit, ya'ni do'stlari, o'qituvchilari va boshqa atrofdagilar bilan muloqot qilish imkoniyati bolaning kommunikativ ko'nikmalarini oshiradi.

Psixologik omillar, jumladan, bola o'zini qanday his qilishi, xavfsizlik hissi, o'ziga bo'lgan ishonch va hissiy barqarorlik uning nutqiy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.